

MAKTABGA TAYYORLOV BOSQICHIDA BOLALARNING MANTIQ ORQALI AQLI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Toshmatova Odinaxon Lukmonjonovna

*Andijon Davlat pedagogika instituti Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi fakulteti
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistri.*

Anatatsiya: *Mazkur maqola maktabga tayyorlov bosqichida bolalarning yaxshi rivojlanishi shuningdek aqli jihatdan yaxshi ta'lim va tarbiya olishiga. Ota – onalar tarbiyachi va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlovchilar uchun mantiq orqali aqli jihatini qanday oshirishni qisqacha yoritgan.*

Kalit so'zlar: *Mantiq, bola, aql, metafizika, ontologiya.*

KIRISH

Eng avvalo mantiq o'zi nima degan savol barchani qiziqtirib, o'ylantiradi. Mantiq bu falsafiy muammolarni hal qilish hisoblanadi. Mantiqning mohiyati uning yechimida deb qarash mumkin. XX-asrda turli xil mantiqiy rasmiy tizimlar yoki mantiqlar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni tasniflash, bir-biri bilan qanday bog'liqligini ko'rsatish va qanday qilib ko'p qirrali bo'lishi mumkinligi muammosini hal qilish mantiq falsafasining vazifasidir. Mantiqlar bitta universal haqiqiy mantiqdan farqli o'laroq. Ushbu mantiqlarni klassik mantiqqa bo'lish mumkin, odatda birinchi tartibli mantiq, kengaytirilgan mantiq va deviant mantiqlar bilan aniqlanadi. Kengaytirilgan mantiqlar klassik mantiqning asosiy formalizmi va aksiomalarini qabul qiladi, lekin ularni yangi mantiqiy lug'at bilan kengaytiradi.

Mantiq metafizikasi mantiq qonunlari va ob'ektlarining metafizik holati bilan bog'liq. Bu sohada muhim bahs mantiq ongdan mustaqil bo'lgan faktlarga asoslanadi, deb hisoblaydigan realistlar bilan mantiq qonunlari tildan foydalanishni tartibga soluvchi konventsionalistlar bilan bog'liq. Bu sohada muhim bahs mantiq ongdan mustaqil bo'lgan faktlarga asoslanadi, deb hisoblaydigan konventsionalistlar kabi antirealistlar o'rtasida bo'ladi. Mantiq turli fanlar bilan chambarchas bog'liq. Ontologiya bilan bog'liq asosiy masala mantiqdan foydalanish bilan bog'liq ontologik majburiyatlarga taalluqlidir, masalan; alohida atamalar va ekzistensial kvantlar bilan. Matematikadagi muhim savol-barcha matematik haqiqatlarni to'plamlar nazariyasi bilan birga mantiq aksiomalariga asoslash mumkin. Shu mantiqning nazariy jihati hisoblanadi. Mantiq maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi bolalarning ongini va xotirasini mustahkamlaydi. Chunki maktabgacha tayyorlov guruhi bolalari bog'chada mantiqni qisman o'rganishi bolalarni maktabda qiynalmay moslashib olishiga ham imkon beradi.

ASOSIY QISMI

Mantiq haqida tushunchaga tayangan holda maktabga tayyorlov guruhlarida mantiq orqali aqli faoliyatni rivojlantirish. Bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib aqli va psixologik jihatdan tarbiyalashni yoritish mumkin bo'lmaydi.

Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. <<Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo'linadi. 1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir. 2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlardan. O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. >> [1] Mantiq ilmining juda ham ko'plab olim va yosh izlanuvchilar ham izlanmoqda lar aqlning individualni paydo bo'lishi mantiq paydo bo'lishi bilan bog'liq. Tasavvur etish, tafakkurning, mantiqiy fikrlashning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg'ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri – bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli o'yinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlantiradi. Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo'lib, so'z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a'lo darajada o'zlashtirishda ko'maklashadi.

Mantiqiy savolari, muammolarni yechish bolalarni diqqatini jalb qiladi. Bolalar maktab ta'limiga borishidan oldin buni tarbiyachi bolalarga mashg'ulotlari davomida yoki kun mobaynida shakllantiradi. Bolalarni qiziqtirish kerak. Shuning uchun balalarni qiziqishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Eng asosiysi, bolaning mantiqiy fikrlashini o'yin tarzida rivojlantirish kerak. Dars qilgandek, uni majburlab rivojlantirish ijobiy natijaga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdagi bola har tomonlama rivojlana olsa, keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo'ladi. Bolalar bizning bugunimiz, ertangi kunimizning egalari ekan ularga sidqidildan ta'lim va tarbiya berib, bolalardan ham talab qilib olish zarur. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'yin o'ynash juda yoqadi. Shuning uchun ham og'ir mashg'ulotlarni ham oson bajara olishadi. Bolalarni asrab avaylash, kelajagimizni parvarish qilish degani.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. Shodmonova. Maktabgacha pedagogika. T., «Fan va texnologiyalar», 2005.
2. A. Holiqov. Pedagogik mahorat. T., «Iqtisod — Moliya», 2010.
3. Hasanboyeva O., Tadjieva M., Toshpulatova Sh. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm-ziyo, 2012.